

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

SDTU rektori

Ch.J. Turkyilmaz

2026-yil

05.09.01 – “Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihonlari, mustaqil
izlanuvchilik (PhD) va stajyor-tadqiqotchilikka saralash uchun
suhbatni o‘tkazish

D A S T U R I

Kirish

Ushbu 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) kirish imtihonlari dasturi qurilish muhandisligi sohasi bo'yicha talab yuqori bo'lgan, raqobatbardosh ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni va shu orqali O'zbekistonda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Ushbu dasturning asosiy mazmuni oliy o'quv yurtlarining 60730300 –Bino va inshootlar (sanoat va fuqaro binolari) bakalavriatura yo'nalishi, 70730301 – Qurilish muhandisligi magistratura mutaxassisliklari uchun tasdiqlangan namunaviy o'quv reja hamda fan dasturlari asosida tayyorlangan. Unda temirbeton, metall va yog'och konstruksiyalarini loyihalash hisoblash bo'yicha nazariy bilimlar, tushunchalar, asosiy qoidalar hamda amaliy ko'nikmalar e'tiborga olingan.

05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihonlarida, mustaqil izlanuvchilik (PhD) va stajyor-tadqiqotchilikka saralash uchun suhbatni o'tkazishda mazkur dastur doirasida savollar tayyorlanadi.

Asosiy qism

1. Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar

Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlarni hisoblash

bo'yicha umumiy ma'lumotlar

Qurilish konstruksiyalarni hisoblashning metodologik asoslari. Asosiy tushuncha va qoidalar. Chegaraviy holatlar usuli bo'yicha hisoblashning mohiyati. Yuklar va ta'sirlarning meyoriy va hisobiy miqdorlari. Konstruksiyalar uchun materiallar tanlash.

2. Konstruksiyabop materiallar

Umumiy ma'lumotlar. Tosh- g'isht, yog'och va plastmassa, po'lat materallar va alyuminiy qotishmalar, betonlar va armaturalar, temirbeton materiallar, zamonaviy konstruksiyabop materiallar haqida ma'lumot.

3. Qurilish konstruksiyalar elementlarini chegaraviy holatlar birinchi guruhi bo'yicha hisoblash. Cho'ziladigan elementlar.

Umumiy ma'lumotlar. Cho'ziladigan tosh-g'isht, yog'och, metall, temirbeton elementlarini hisoblash.

4. Qurilish konstruksiyalar elementlarini chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblash. Siqiladigan elementlar.

Umumiy ma'lumotlar. Siqiladigan tosh-g'isht, yog'och, metall, temirbeton

elementlarini hisoblash.

5. Qurilish konstruksiyalar elementlarini chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblash. Egiladigan elementlar.

Umumiy ma'lumotlar. Egiladigan tosh-g'isht, yog'och, metall, temirbeton elementlarini hisoblash. Qiya kesimlarni siquvchi kuch va eguvchi moment ta'siriga hisoblash. Ko'ndalang armaturasiz elementlarni hisoblash.

6. Qurilish konstruksiyalar elementlarini chegaraviy holatlar ikkinchi guruhi bo'yicha hisoblash.

Qurilish konstruksiyalarini hisoblash bo'yicha umumiy ma'lumotlar. Tosh-g'ish elementlar va temirbeton konstruksiyalar elementlarini darzbardoshlikka va yoriqlarni ochilishiga va yopilishiga hisoblash.

7. Konstruksiyalar elementlarini deformatsiyalar bo'yicha hisoblash.

Umumiy ma'lumotlar. Tosh-g'isht, yog'och, metall, temirbeton konstruksiyalarni deformatsiyalar bo'yicha hisoblash.

8. Qurilish konstruksiyalar elementlarini birikmalari.

Umumiy ma'lumotlar. Yog'och konstruksiyalarining birikmalari, metall konstruksiyalarining birikmalari. Temirbeton konstruksiyalarini elementlarini birikmalari. Qurilish konstruksiyalari birikmalarini loyihalash va hisoblash.

9. Bino va inshootlarning asosiy elementlarini konstruksiyalash.

Bino va inshootlar konstruksiyalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Plitalar, yog'och va metal to'shamalar, panellar, temirbeton orayopmalar va tom yopmalari, To'sinlar va ularning turlari. Yog'och, metall va temirbeton to'sinlar. To'sinlarni loyihalash va hisoblash. Fermalar va ularning turlari. Yog'och, metall va temirbeton fermalar. Fermalarni loyihalash va hisoblash. Ustunlar va ularning turlari. Tosh-g'isht, yog'och, metall va temirbeton ustunlar. Ustunlarni loyihalash va hisoblash. Poydevorlar va ularning turlari.

Mutaxassislik bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. B.A.Asqarov, Sh.R.Nizomov Temirbeton va tosh gisht konstruksiyalari Toshkent, "Iqtisod- moliya", 2008.-440bet.
2. Q.I.Ruziyev, V.F.Usmanov, S.A.Asliyev. Qurilish konstruksiyalari. Darslik Firdavs Shoh nashriyoti. Toshkent.2023. -397 bet.
3. T.Maxmatkulov. Yog'och konstruksiyalari Darslik, Toshkent, "SAHHOF", 2022.-328 bet.
4. Raximov A.K. Metall konstruksiyalari (maxsus kurs). Darslik. T.: 2024. – 295 b.
5. T.Maxmatkulov. Yog'och konstruksiyalari. (Loyihalash va hisoblash) O'uv qo'llanma, Samarqand, SamDU nashriyoti. 2024, – 280 bet.
6. V.F.Usmanov. Железобетонные и каменные конструкции. Примеры расчета. "Firdavs Shoh " nashriyoti Toshkent. 2023 -430 – bet.
7. QMQ 2.03.01-96. Beton va temirbeton konstruksiyalar. O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishqo'mi. - Toshkent, 1996 -215 bet.
8. QMQ 2.01.03-96. Zilzilaviy xududlarda qurilish. /O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishqo'mi. -Toshkent: Ibn Sino nomidagi TNMB, 1995 - 59 bet.
9. QMQ 2.01.07-96. Yuklar va ta'sirlar. / O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishqo'mi. - Toshkent, 1996 -126 bet.
10. QMQ 2.03.08-98. Yog'och konstruksiyalar (O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishqo'mi) - Toshkent, 1998- 79 bet
11. QMQ 2.03.07-98. Tosh va o'zaktoshli qurilmalar. (O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishqo'mi) - Toshkent, 1998,.106 bet.
12. QMQ 2.02.01-98. Asos va poydevorlar. (O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishqo'mi) - Toshkent shahri, 1998, 106 bet.

**05.09.01 – “Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar”
ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihonlari, stajyor-
tadqiqotchilik va mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga saralash uchun suhbatni
o'tkazishning baholash mezonlari**

Tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihonlari **yozma**, stajyor-tadqiqotchilik va mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga saralash **suhbat** shaklida o'tkaziladi. Imtihon va suhbat biletlari (varianti)da 5 tadan savol bo'lib, ularning har biri maksimal 20 ball bilan baholanadi. Eng yuqori umumiy ball - 100 ga teng. Savollarni baholash mezonlari quyidagicha:

- 0 – 5 ball** - faqat umumiy ta'rif berilgan bo'lsa;
- 6 – 10 ball** - umumiy ta'rif berilib izohlangan bo'lsa;
- 11 – 15 ball** - umumiy ta'rif va izohlar berilib, savol sxema va kerakli formulalar bilan yoritilgan bo'lsa;
- 16 - 20 ball** - umumiy ta'rif va izohlar sxema, formula va misollar bilan keltirilib, savol atroflicha yoritilgan bo'lsa.

Kafedra mudiri:



Karimov G.U.